

TA'LIM VA MUZEY YOSHLAR BILAN ISHLASHNING YANGI METODLARI.

Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi

San'at bo'limi mudiri: **To'xtaboyeva D.**

Mamlakatimizdagi muzeylar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning marketing siyosati va xizmatlar sohasini kompleks rivojlantirish, muzeylarga innovatsion texnologiyalarni samarali qo'llash, shuningdek, muzeylarda o'zbek xalqi va davlatchiligi tarixi, Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlari, buyuk allomalar hayoti va faoliyatiga oid zamonaviy yangi ekspozitsiyalarni yaratish, muzey to'plamlaridagi boy tarixiy va madaniy merosimizni keng targ'ib qilish maqsadida.

Ta'lim jarayonida muzeylarning o'rni kun sayin ortib bormoqda. Zamonaviy muzeylar endi faqat eksponatlar saqlanadigan joy emas, balki yoshlar uchun interaktiv o'quv makoniga aylangan. Muzey muhitining o'zi bilim olish, kuzatish va ijodiy fikrlashga ilhom beradi.

Yoshlar bilan ishlashda yangi metodlarning paydo bo'lishi muzey-pedagogika rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan, interaktiv dasturlar, virtual ekskursiyalar, STEAM-loyihalar, jonli darslar va madaniy meros bilan bevosita tanishuv orqali o'quvchilarda tafakkur chuqurlashadi.

Muzeylarda tajribaviy o'qitish metodidan foydalanish zamonaviy ta'limning muhim yo'nalishiga aylandi. Bu metod orqali yoshlar eksponatlarni nafaqat ko'radi, balki ular bilan ishlaydi, tadqiqot olib boradi, savollar beradi va mustaqil xulosa chiqaradi. Bunday faoliyat yoshlarning ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida yaratilyotgan multimedia platformalar yosh avlodning ehtiyojiga mos kelmoqda. Virtual realistik ko'rgazmalar, QRkodli

ma'lumotlar, augmented reality (AR) dasturlari, mobil ilovalar orqali eksponatlarga oid kengaytirilgan tushunchalar berilmoqda.

Muzey va maktablar o'rtasidagi hamkorlik dasturlari ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Maktab o'quvchilari uchun maxsus ekskursiyalar, tematik mashg'ulotlar, viktorinalar, tadqiqot loyihalari tashkil etilishi yoshlarning tarix, san'at va madaniyatga qiziqishini kuchaytiradi. Avvalambor, muzeyda maktab yoshigacha bo'lgan bolalarning psixologik holati, ularning axborotni qabul qilish darajalarini o'rganishda, asosan yosh bolalarda atrofmuhitni anglash, fikrlash va bobolarimizni kim bo'lganligini va qudratini eslab qolish qobiliyatlari hisobga olinadi. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga muzeyga tashrif jarayonida dastlab ekspozitsiyadagi ashyolarning insoniyat taraqqiyotidagi ahamiyati haqida suhbat o'tkaziladi. Shuningdek, kichik yoshdagi tashrif buyuruvchilar uchun teatrlashtirilgan, izlanish olib borishga yo'naltirilgan hamda o'yin tariqasidagi mashg'ulotlardan foydalanish mumkin. O'yin tarzidagi suhbat orqali ekskursiyalar o'tkazishda ularning shakllanayotgan psixologik jarayonlarini o'rganib, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va bu borada bolalarga zamonaviy texnika vositalaridan foydalanish imkoniyatini yaratish zarur. Muzey pedagogikasi kichik yoshdagi tashrif buyuruvchilar bilan ishlashning turli shakllari: viktorina, rebus va musobaqalar tarzida tashkil etishni tavsiya qiladi. Bundan tashqari, bolalar uchun vazifa tariqasida "Mening shajaram", "Mening uyimdagi yodgorlik", "Uy bo'ylab sayohat" kabi mustaqil vazifalar yoki marshrut varaqalari orqali ijodiy topshiriqlar ham ijobiy natijalar beradi.



Shuningdek, muzeylardagi bolalar uchun mo'ljallangan interaktiv zonalar, amaliy seminarlar, ijodiy ustaxonalar ham ta'lim jarayoniga katta hissa qo'shadi. Yoshlar eksponatlar bilan ishlash jarayonida o'z ijodkorligini namoyon qiladi, yangi g'oyalar yaratadi. Muzeylarga kelayotgan tomoshabinlarning asosini deyarli maktab o'quvchilari tashkil etadi. Hukumatimiz o'sib kelayotgan yosh avlod ongida milliy g'urur va iftixor, istiqlol va Vatanga sadoqat tuyg'ularini kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 12 aprelda "O'zbekiston Respublikasining "Muzeylar to'g'risida"gi Qonunini ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan normativhuquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida"gi 68-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda 18 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun davlat muzeylarida turgan Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini bir oyda bir marta bepul kirib ko'rish tartibi joriy etildi. Qarorga ko'ra 18 yoshgacha bo'lgan bolalarning davlat muzeylarida muzey tematikasiga mos holda tegishli o'quv fanlari mavzulariga oid mashg'ulotlar tashkil etish hamda o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, milliy bayramlar, qadriyatlar hamda buyuk siymolar hayoti va ijodiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy

tadbirlar, kechalarda ishtirok etish va ko‘rgazmalar hamda ekspozitsiyalarni kirib ko‘rish imkoniyatiga ega edilar.



Hukumatimiz tomonidan ishlab chiqilgan “Sog‘lom bola yili” Davlat dasturining 9bandiga ko‘ra o‘lib kelayotgan yosh avlodni ona Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning ongiga xalqimizning boy milliy merosi va tarixiy o‘tmishini hurmat qilish va e‘zozlashni singdirish hamda aholi dam olishini mazmunli tashkil etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 11 iyulda “Davlat muzeylarining bolalar va ularning ota-onalariga ochiqqligini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 189-conli qarori qabul qilindi.

Ushbu qaror bilan O‘zbekistondagi idoraviy bo‘ysunishidan qat’iy nazar barcha davlat muzeylarining bolalar va ularning ota-onalariga ochiqqligini ta‘minlash maqsadida davlat muzeylariga 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarga haftaning har seshanba va juma kunlari, barcha aholiga har yili 2–8 sentyabr kunlari o‘tkaziladigan “Muzeylar haftaligi” doirasida bepul kirish tartibi joriy etildi.

Mazkur qarorni amalga oshirilishi natijasida:

- betakror tarixiy merosini xalqimizga to'la yetkazish, yosh avlodni xalqimiz madaniyati tarixi bilan g'ururlanish va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga zarur shartsharoit yaratildi;

- muzeylardagi xalqimizning boy madaniy merosini, uning insoniyat tarixidagi roli zamonaviy texnologiyalar asosida keng targ'ib qilinmoqda;

- o'tgan davr mobaynida qo'lga kiritilgan yutuq va natijalarimizni, mamlakatimizning salohiyati va qudrati, uning xalqaro maydonda nufuzi tobora yuksalib borayotgani, tub islohotlarimizning mohiyati va ahamiyatini aholining keng qatlamlariga ekspozitsiya orqali yanada chuqurroq ochib berilmoqda;

- muzeylardagi noyob eksponatlar orqali fuqarolarda, ayniqsa yosh avlodda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, bebaho tarixiy va madaniy merosga hurmat, g'urur va iftixor, vatanga sadoqat tuyg'ulari kuchaytirilmoqda;

- O'zbekiston Respublikasining fan, madaniyat, ta'lim, sport sohalarida hamda jahon hamjamiyatiga integratsiyasi va uning keng xalqaro maydonga chiqishi uchun olib borilayotgan keng ko'lamli davlat islohotlari yoritib berilmoqda.



“Muzeylar haftaligi”ning “Yagonasan, muqaddas Vatanim, sevgi va sadoqatim senga baxshida, go‘zal O‘zbekistonim” shiori ostida aynan Mustaqilligimizning 23 yillik shodiyonalari nishonlangan kunning ertasigayoq boshlanayotgani bejiz emas.

Istiqlol yillarida insoniy kamoloti va ijtimoiy faoliyati bilan millatimiz faxriga aylangan ulug‘ ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ular qoldirib ketgan boy madaniy meros va tarixiy yodgorliklarni avlodlarga yetkazish maqsadida, mamlakatimizdagi muzeylar faoliyatini rivojlantirish borasida qator ishlar amalga oshirildi.

Ammo, badiiy muzeylarimizda yosh avlod bilan ishlash jarayonida ham bir qancha muammolarni ko‘rishimiz mumkin:

- maxsus bolalar uchun mo‘ljallangan ekskursiya paketlarining ishlab

chiqilmaganligi;

- maktablar bilan aloqa yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi;

- maxsus bolalar uchun ko‘rgazmalarning kam tashkil etilishi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda bugungi kunda muzeylarimizdan aholining ma‘naviy tarbiyasini ko‘tarishda barcha mavjud imkoniyatlardan samarali

foydalanayapmiz deb bo'lmaydi. Muzeylarda nafaqat adabiyot, tarix, mehnat, rasm fanlarini, balki aniq fanlardan fizika fanini ham darsga bog'lab o'tish mumkin. Hammamizga ma'lumki, o'quvchilar fizika, ximiya fanlarini o'zlashtirishda qiynalishadi. Demak, o'quvchilarni muzeyda fizikaga oid qonunlar kashf etilgan davrga sayohat uyushtirib, nima uchun aynan shu davrga kelib shu qonun kashf etilganligi, uning sabablari, o'sha davrda insonlarning yashash tarzi, turmushi haqida amaliy va tasviriyl san'at asarlari orqali so'zlab berilsa ularda fanga nisbatan katta qiziqish uyg'otish bilan birga tasavvurini kengayishiga ham yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy muzeylar yoshlar ta'limida innovatsion markazga aylanib bormoqda. Ular bilim berish, o'rgatish va tarbiyalashning yangi, samarali metodlarini taklif etmoqda. Muzeylarning ta'lim bilan integratsiyalashuvi kelajak avlodning bilimli, tafakkuri keng va madaniyatli bo'lib yetishishida muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova, D. Muzeyshunoslik asoslari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
 2. Tursunov, A. Madaniyat va san'at menejmenti. — Toshkent: O'qituvchi, 2019.
 3. Saidova, M. "Ko'chma muzeylar: xalq bilan madaniyat o'rtasidagi yangi ko'prikl". // Madaniyat va meros jurnali, №3, 2023.
 4. Islomova, N. "Mobil muzeylarning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati". // Zamonaviy ta'lim jurnali, №2, 2024.
 5. Smithsonian Institution. Smithsonian on Wheels: Taking Museums to the People. — Washington D.C., 2021.
 6. UNESCO. Mobile Museums and Cultural Outreach: Global Practices. — Paris, 2020.
- "Ko'chma muzeylar faoliyati to'g'risida" maqola. — www.madaniyat.uz, 2024. 10.
- "World Mobile Museums: Innovations in Cultural Education." —